

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИЯЧИСИННИГ ФАОЛИЯТИДА КРЕАТИВЛИКНИНГ АХАМИЯТИ

Sharopova Zilola Abdusattorovna

Navoiy shahar 2-sonli DMTT tarbiyachisi

Annotasiya Ushbu maqolada "kreativlik" tushunchasining umumiy mazmuni va pedagog-tarbiyachi faoliyatida kreativlikka asoslangan uslubda ta'lif jarayonini tashkil etishi va o'zida mavjud va yashirin qobiliyatlarni rivojlantirishning umumiy asoslari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, globallashuv, innovatsiya, kreativlik, o'ziga xoslik, ravonlik, moslashuvchanlik, yaratuvchanlik.

Аннотация: В статье раскрыто общее содержание понятия «творчество» и организация образовательного процесса, основанного на творчестве, в деятельности педагога-воспитателя, а также общие принципы развития имеющихся и скрытых способностей.

Ключевые слова: Цифровая экономика, глобализация, инновации, креативность, оригинальность, текучесть, гибкость, креативность.

Annotation: This article describes the general content of the concept of "creativity" and the organization of the educational process based on creativity in the activity of a pedagogue-educator, as well as the general principles of developing existing and hidden abilities.

Keywords: Digital economy, globalization, innovation, creativity, originality, fluidity, flexibility, creativity.

Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lif tizimidan boshlanadi.

Sh.M.Mirziyoyev. [3]

Jahonda "Raqamli iqtisodiyot", "Globallashuv", "Innovatsiya", "Kreativlik" kabi terminlar keng qo'llanilmoqda. Hozirda insoniyat axborotlashgan va texnologik jihatidan taraqqiy etgan zamonda yashayotgan ekan, ayni damda raqamlashtirish siyosati kirib borayotgan sohalarni har jahhada va har soniyada bevosita ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda ta'lif sohasida asosiy e'tibor qaratish lozim bo'lgan noananaviy ta'lif sifati ya'ni "kreativ" ta'limi joriy qilish ustida keng ko'lamli sa'y harakatlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi mamlakatimizning ta'lim tizimida asosiy e'tibor qaratilayotgan soha maktabgacha ta'lim tizimi hisoblanib, uni rivojlantirishning turli usullari va yo'llarini ishlab chiqish uchun bir qancha dasturlar yaratish asosiy maqsad qilib olingan. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning aksariyat qismini yosh avlodni har tomonlama mukammal, komil inson qilib tarbiyalash masalalari egallaydi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ham asosiy vazifalardan biridir. [4] Kadrlar salohiyatini oshirish, yetaricha malakali mutaxassislar tayyorlash borasidagi vazifalar ham bugungi kunda o'z yechimini topayotgan maslalardan biri bo'lib, maktabgacha ta'lim tizimida har bir xodim jumladan tarbiyachining kreativ kompetentlilagini yanada rivojlantirishning bir necha yo'llari ustida ishlanmoqda.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiylar va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. "Kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. [5]

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib tarbiyachining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'y lab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etiladi. Ingliz psixolog E.P.Torrens kreativlikning quyidagi to'rtta ko'nikmasini aniqlagan bo'lib, bular;

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'y lab topish ko'nikmasi "ko'p" degan so'zga asoslanadi
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'y lab topish "ko'nikmani o'zgartirish" degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'y lab topish ko'nikmasi "noyob" degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi "qo'shish" degan so'zga asoslanadi. [1]

P.Torrens fikricha, kreativlik: muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakillantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qaram-qarshiligidagi nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. [2]

Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishslash orqali shakillantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining har bir tarbiyachisi o'zida mavjud oshkora va yashirin kreativ qobiliyatlarini yanda rivojlantirish va takomillashtirish uchun faqat va faqat o'z ustida mustaqil ishlashi va xorij tajribalari bilan hamnafas faoliyat olib borishi albatta kafolatlangan natijaga erishishga sabab bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, biz avvalgi tartibda saqlanib qolgan an'anaviy usuldagagi faoliyatdan ozroq chekinib, noan'anaviy usulda, yangicha talqinda mashg'ulotlar va ta'limiy faoliyatlarini yo'lga qo'yishni maqsad qilib olsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir pedagog-tarbiyachi o'zida mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda o'z uslubini kreativ yondashgan holatda sifatli tartibga o'zgartirishi va samarali natijaga erishish yo'lini ongli ravishda anglasa, albatta biz ko'zlangan natijaga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish"/Monografiya.-T.:Fan, 2004, 34-bet.
2. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi"
3. Nasiba Erxonova "Ma'rifat" "Maktabgacha ta'lim, kecha, bugun, ertaga" 24.10.2019
4. To'rayeva Ch.Sh. "Raqamli iqtisodiyot davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish" magistrlik diss. 2023.
5. <https://azkurs.org/kreativlik-tushunchasi-va-uning-mohiyati-pedagogning-kreativ-s.html>